

TA'LIM VA TARBIYA UZVIYLIGI - INKLUZIV JAMIYATNING POYDEVORI

Ibragimova Shahloxon Oyturaxonovna

FarDU Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Pedagogika fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Rasulova Klaraxon Mahmadaamin qizi

Farg'ona davlat universiteti "Pedagogika kafedrası" Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Inklyuziv maktablardagi tarbiya prinsiplari butun tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalaniladigan qonun-qoidalar majmuasidir. Bu qoidalarga tarbiyaning mazmuni, usullari, tashkil etish shakllari kiradi. Maskur maqolada ta'lim va tarbiya uzviyligiining inkluziv jamiyat qurishdagi ahamiyati haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *inkluziv, ixtisoslashtirilgan, korreksion, intergratsiyalashgan, reabilitatsiya, adaptatsiya.*

НЕПРЕРЫВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ – ОСНОВА ИНКЛЮЗИВНОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация. *Принципы обучения в инклюзивной школе – это свод правил, позволяющих лучше организовать весь образовательный процесс. Эти правила включают в себя содержание, методы и формы организации образования. В статье описывается важность интеграции образования и обучения в построении инклюзивного общества.*

Ключевые слова: *инклюзивный, специализированный, коррекционный, комплексный, реабилитационный, адаптационный.*

CONTINUITY OF EDUCATION IS THE BASIS OF AN INCLUSIVE SOCIETY

Abstract: *The principles of education in inclusive schools are a set of rules used to better organize the entire education process. These rules include the content, methods, and forms of organization of education. The article describes the importance of the integration of education and training in building an inclusive society.*

Key words: *inclusive, specialized, correctional, integrated, rehabilitation, adaptation.*

KIRISH

Inson jamiyatining rivojlanishida ta'lim va tarbiya asosiy omillar hisoblanadi. Ular shaxsning to'liq va harmonik shakllanishiga, ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli ishtrok etishga yordam beradi. XXI asrda dunyo tez o'zgarib bormoqda va ta'lim tizimi ham shu o'zgarishlarga moslashishga, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan. Inkluziv jamiyat tushunchasi esa ta'lim va tarbiyaning o'zaro uzviyligiga asoslanib, har bir farzandni qabul qilish, uni rivojlantirish va jamiyatda o'z o'rnini topishga yordam berishga qaratilgan. Inkluziv jamiyat barcha farzandlarning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotida teng ishtirok etish huquqini

ta'minlaydi. Bu tushunchaga erishish uchun ta'lim va tarbiyaning o'zaro uzviyligi juda muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish ko'zda tutilmoqda. Natijada inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, o'ziga xos imkoniyatlarini¹⁸ chuqurroq o'rganish, u bilan bog'liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Barcha maktablarda tarbiya prinsiplari umumiy ko'rinishga ega. Ammo, inklyuziv maktablarda rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning psixologik, jismoniy, hissiy nuqsonlariga ko'ra o'ziga xos prinsiplardan ham foydalaniladi.

Inklyuziv ta'lim – o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir.¹⁹

Inkluziv ta'lim barcha bolalarning o'rganishga bo'lgan huquqini ta'minlaydi, ularning individual ehtiyojlarini hisobga oladi va har bir bolaning potentsialini ochishga yordam beradi. Bu turli qobiliyatli, til va madaniyatli bolalar uchun moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratishni anglatadi. Bu demak, ta'lim tizimi bolalarning xoh fizik, xoh intellektual, xoh ijtimoiy jihatdan o'ziga xosligi hisobga olingan holda shakllantirilishi kerak.

Inkluziv tarbiya esa barcha bolalarning o'zaro hurmat va hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu turli guruhdagi bolalarni bir-biriga moslashtirish, ular o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirish va o'zaro tushunishni kuchaytirish uchun amalga oshiriladi. Bu turli madaniyat va qadriyatlarga ega bolalar orasida o'zaro tushunishni rivojlantirish va teng sharoitlarni yaratish orqali amalga oshiriladi.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, xis tuyg'ulari rivojlanadi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va hohishlarini ifodalaydi.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongigina emas, balki, his tuyg'ularini ham o'stira borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan ahloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayoni asosida) hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, hulqini idora qilish jarayonida) sistemali va muntazam ta'sir etib boriladi. O'quvchini tarbiyalashda bularning birontasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko'p qirrali va murakkab jarayon deb yuritiladi.

¹⁸ YUNESCO: Jamiyatga va inklyuziv ta'limga muhtojlarga qaratilgan Dastur. – 1994

¹⁹ Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: "Fan", 2008. –B.47.

Tarbiya – arabcha soʻzdan olingan boʻlib, parvarish qilmoq, taʼlim bermok, oʻrganish, odob oʻrgatish, mehribonlik koʻrsatish, himoya qilish singari maʼnolarni anglatadi. Shu oʻrinda Zardushtlik dinining muqaddas kitobi boʻlmish “Avesto” katta ahamiyatga ega. “Avesto”da insonning barkamol boʻlib yetishishida uning soʻzi, fikri, ishi, birligiga katta eʼtibor berilgan. Bu axloqiy uchlik eng qadimgi davrlardan boshlab undan keyin yaratilgan barcha maʼrifiy asarlarga asos boʻlgan desak xato qilmagan boʻlamiz. Ayniqsa, “Avesto”da inson tarbiyasiga, insonlarning jamiyatda tutgan oʻrniga munosabati toʻliq yoritilgan.

Tarbiya deb - tarbiyachi oʻzi hohlagan sifatlarini tarbiyalanuvchilarning ongiga singdirishi uchun ularning ruhiyatiga maʼlum maqsadga koʻra tizimli taʼsir koʻrsatishiga aytiladi. Tarbiya bola tugʻilganidan umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Tarbiya – biror maqsadga qaratilgan jarayon, u doimo muayyan rejaga ega boʻladi va buning uchun maxsus vakolatga ega boʻlgan kishilar tomonidan amalga oshiriladi. Hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarning axloqi va odobi, iyʼmoni va vijdoni, bilimi – malakasi, xatti-harakati, yoʻnalishi, tarixiy tajribasi, davr talablari va ehtiyojlari, istiqloq vazifalari bilan uygʻunlashtirib shakllantirishga, rivojlantirishga harakat qilganlar. Oʻz oldiga inson kuchi, bilimi va irodasi bilan bajarilishi mumkin boʻlgan muayyan maqsadlarni qoʻygan davlatlar ham taʼlim-tarbiya ishlariga befarq qaramagan.

Rivojlanishida muammosi boʻlgan oʻquvchi shaxsini gʻoyaviy va maʼnaviy shakllantirish manfaatlari pedagogning har bir xatti-harakatini tarbiyaning maqsadlari bilan qiyoslashni, uning amalga oshirilishiga rejali tarzda va qunt bilan erishishni talab qiladi. Har bir tarbiyaviy tadbirning qimmatini uning rivojlanishida muammosi boʻlgan oʻquvchilar jamoasi hayotini qanchalik boyitganligi, ishonchni shakllantirishga qanchalik yordam berishi bilan oʻlchanadi. Afsuski, qator inklyuziv maktablarda tarbiyaviy tadbirlar xoʻja koʻrsinga rejalashtiriladi. Bular oqibatda bolalarda qiziqish, joʻshqinlik va hissiy shakllanishning imkoni pasayadi. Inklyuziv maktab oʻquvchilarini tarbiyalash vositasi boʻlgan faoliyatning barcha turlariga puxta yoʻnalish berilishi shart.

Inklyuziv maktabda tarbiyaning hayot bilan, amaliyot bilan bogʻliqlik prinsipi yetakchi prinsip hisoblanadi. Buning mohiyati shundan iboratki, tarbiyaga jamiyatning iqtisodiy va maʼnaviy munosabatlarini, voqelikning qadriyatlarini, axloqi va estetikasini tatbiq etishdan iborat. Inklyuziv maktabda oʻquvchilarni moddiy ishlab chiqarish sohasidagi mehnatga, kasbni asosli tarzda tanlashiga oʻqituvchilar, tarbiyachilar, oʻquvchilar va ota-onalar tomonidan chuqur anglab olinishi kerak. Baʼzan tarbiyaning turmush bilan bogʻliqligini tarbiyaviy ish hamda inklyuziv maktab oʻquvchilarining umumli mehnati oʻrtasida aloqa oʻrnatishdangina iborat deb qaraladi. Ammo hayot umumli mehnatga qaraganda ancha kengroq va mazmunliroq tushunchadir. Inklyuziv maktab oʻquvchilarini mehnat faoliyatining xilma-xil shakllariga jalb etayotganda bu narsa insonni jamiyatga xizmat qilish, oʻz hayoti farovonligini taʼminlash, moddiy va maʼnaviy moʻl-koʻllikka erishish kabi maqsadlarni taʼminlashga zamin ekanligini tushuntirish kerak. Qilinayotgan barcha tarbiyaviy tadbirlar hayotiy, yaʼni rivojlanishida muammosi boʻlgan bolalar eshitgan, koʻrgan narsalarga asoslangan tarzda olib borilsa, yaxshi samara beradi. Aks holda oʻtkazilgan tadbirlar bolalar uchun tushunarsiz narsa boʻlib qolishi mumkin.

Taʼlim va tarbiyaning uzviyligiga asoslangan inkluziv jamiyatning afzalliklari:

- Bolalarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi yaxshilanadi. Inkluziv ta'lim va tarbiya bolalarni turli madaniyat va qadriyatlar bilan tanishtiradi, o'zaro hamkorlik va hurmat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu jarayon bola shaxsiyatining to'liq va harmonik shakllanishiga yordam beradi.

- Bolalarning o'rganish natijalari yaxshilanadi. Inkluziv ta'lim muhiti bolalarga o'z qobiliyatlarini ochishga va o'rganishga qiziqish uyg'otishga imkon beradi. Turli o'quv usullari va resurslaridan foydalanish bolalarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi va shu sababli ularning o'rganish samaradorligi ortib boradi.

- Jamiyatning ijtimoiy tenglik darajasi oshadi. Inkluziv jamiyat barcha farzandlar uchun teng sharoit yaratadi va ularning jamiyatda o'z o'rnini topishlariga yordam beradi. Bu jamiyatda tenglikni ta'minlashga, kamsitishni yo'qotishga va barcha farzandlar uchun ochiq va moslashuvchan muhitni yaratishga qaratilgan.

Inklyuziv maktabga kelgan birinchi sinf o'quvchilari rivojlanishi, xususiyatlari jihatidan xilma-xildir. Birlari tarbiyachi gaplarini tushunib, barcha tarbiyalanuvchilarga qaratilgan uning iltimosini tezda bajaradilar, topshiriqlarni qunt bilan ishlaydilar. Ayrimlari esa, tarbiyachining gapiga yaxshi quloq solmaydilar, tushunmaydilar, tarbiyachining hamma tarbiyalanuvchilarga qilgan murojaatini darhol anglab etmaydilar. Inklyuziv maktab bolalari har bir topshiriq yakunida tarbiyachi tomonidan rag'batlantirilishni kutadi. Dastlabki kunlardan oq tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning ayrimlarini yaxshi xulqi uchun maqtab qo'yadi, boshqalariga esa, gapga e'tibor bilan quloq solish kerakligini tushuntiradi. SHu tarzda rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarni tarbiyalash jarayonida inklyuziv maktab tarbiyachisi ta'sir etishning turli usul va yo'llaridan foydalanib, rivojlanishida muammosi bo'lgan bolalarning individual xususiyatlari va tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga oladiki, bu narsa ayrim tarbiyalanuvchidar va umuman inklyuziv maktab manfaatlari yo'lida har xil echimlarga kelishni talab qiladi.

Inklyuziv maktab o'quvchilari bilan amaliy ishlashda tarbiya usullaridan foydalanish ko'nikmalari va malakalarini o'rganish va hosil qilish qulay bo'lishi uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga birlashtirish mumkin. Inklyuziv maktab o'quvchilari ongini shakllantirish usullari, jamoatchilik xulq-atvorini shakllantirish yo'llari, rag'batlantirish usullari va o'z-o'zini tarbiyalash usullari ham qo'llaniladi. SHuni aytib o'tish o'rinliki, ayrim adabiyotlarda yuqorida aytib o'tilgan tarbiya usullari ham son jihatidan ba'zan mazmun jihatdan ham o'zgacha bayon etilgan. Ayrim adabiyotlarda tarbiya usullari 3ta: mashq qildirish, ishontirish va rag'batlantirishdan iborat deyilgan. Ayrim adabiyotlarda esa tarbiyaning usullari ta'lim usullari bilan ug'unlashgan holda talqin etiladi. Inklyuziv maktab o'quvchilarida dunyoqarash va e'tiqodlar tizimini shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-to'yg'usi va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish usullari ham tarbiya usullariga kiradi. Bu toifadagi usullarning mohiyati shundan iboratki, ularning vositasi bilan jamiyat yosh avlodga nisbatan qo'llayotgan talablar bola ongiga etkaziladi.

XULOSA

Inkluziv jamiyat qurish uchun ta'lim va tarbiyaning o'zaro uzviyligi juda muhimdir. Ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar inkluziv ta'lim va tarbiyaning afzalliklarini ko'rsatmoqda. Muammolar mavjud bo'lsa-da, ularni hal qilish uchun choralar ko'rish mumkin. Inkluziv ta'lim va tarbiya orqali biz barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar

yaratib, ularning rivojlanishiga yordam beramiz. Jamiyatning kelajagi inkluzivlikda. Ta'lim va tarbiyaning uzviyligi esa ana shu teng imkoniyatlarga asoslangan inkluziv jamiyatning mustahkam poydevoridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. F.U.Qodirova, D.A.Po'latova. Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika. 4-22-betlar.
2. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: “Fan”, 2008. –B.47.
3. R. Sh. Shomahmudova. "Maxsus va inklyuziv ta'lim" uslubiy qo'llanma. Toshkent - 2011yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021 yildagi 638-sonli qarori.
6. YUNESCO: Jamiyatga va inklyuziv ta'limga muhtojlarga qaratilgan Dastur. – 1994